

Course: History of the Eastern and Western philosophy

**Lecture 5: The Formation of Experimental
mathematical Naturalism in Modern Era**

Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova

DUNYO MEXANISTIK MANZARASINING MUTLAQLASHTIRILISHI VA METAFIZIK TARZDA FIKRLASH USULINING SHAKLLANISHI

Dunyoning mexanistik manzarasi hamda ruh va tana aloqasi.

Rene Dekart ratsionalistik metodologiyasi.

Benedikt Spinozaning substansional-panteistik metafizikasi.

Tomas Gobbsning nominalistik gnoseologiyasi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Bilish metodlari, dunyoning mexanistik manzarasi, metafizik fikrlash, deduktiv metod, panteistik metafizika.

Darsning maqsadi: Yangi davr metafizik falsafasi bo'yicha atroflicha va chuqur bilimga ega bo'lish; Yangi davr metafizik falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosiy tahlil qilish; Yangi davr falsafasi bo'yicha talabalarning bilimni kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Klassik mexanika tushunchalari bizga ham Demokritning atomlar haqidagi ta'limoti, ham dunyoning mexanistik manzarasi (XVII—XVIII asrlar) tushunchalarini eslatadi. Olam faqat son xususiyatlariga ega bo'lgan son-sanoqsiz mayda ko'rinmas moddiy zarralardan iborat narsa sifatida ko'zdan kechiriladi. Ular makonda harakatlanadi va bir-biri bilan qandaydir bir niyat yoki maqsadlarga ko'ra emas, balki mexanik qonunlarga muvofiq to'qnashadi. Bunday tushunchalar mexanika uchun samarali bo'ldi va faylasuflar (Gobbs, Dekart, Leybnits, Spinoza)ni ulardan falsafada foydalanishga ruhlantirdi.

Ilmiy nazariyadan falsafaga bunday o'tish yyetarli darajada muammoli edi. Reallikning bitta aspektini tadqiq qilishda ma'lum tushunchalarning samarali bo'lishi ular olamdagi barcha hodisalarning haqiqiy manzarasini beradi degan ma'noni anglatmaydi. Shuning uchun ilmiy nazariya hisoblangan klassik mexanika tushunchalarining falsafaga taalluqli dunyoning mexanistik manzarasi yoki

mexanistik dunyoqarash sohalariga o'tkazilishi qator qiziq muammolarni vujudga keltirdi.

Falsafiy nazariya ilmiy nazariyaga nisbatan murakkab hisoblanadi. Chunonchi, mexanistik dunyoqarash falsafiy nazariya sifatida duch keluvchi qiyinchiliklar Demokritning atomlar haqidagi ta'limoti oldida tug'ilgan qiyinchiliklarga o'xshaydi. Agar uning son tushunchalari olamda yuz berayotgan barcha narsalarning haqiqiy manzarasini bersa, u holda bizning rang, hid, og'riq va hokazolar, ya'ni sifatlarni chindan his qilishimizni qanday tushuntirish mumkin? Yoki bizning moddiy va mental fenomenlarni farqlashga qodir ekanligimizga bo'lgan ishonchimizni qanday izohlash mumkin? Obrazli aytganda, agar biz faqat "kattalik", "og'irlik", "shakl", "masofa" singari tushunchalarni qo'llashimiz mumkin bo'lsa, u holda biz uy bekasiga juda mazali tayyorlangan olmal pirog uchun minnatdorchilikni qanday izhor qila olamiz? Bu holda biz pirog "katta" va "og'ir" edi deb uncha ko'p narsani ifodalay olmaymiz.

Shu tufayli mexanistik va materialistik tushunchalar bilan ruhlanganlar oldida quyidagi dilemma paydo bo'ldi. Bir tomondan, biz sifatlar (hissiy sifatlar: hid, rang, ta'm) va mental hodisalar (bu tog' yoki bu daraxatga qarama-qarshi men, siz)ni idrok qilamiz. Ikkinchi tomondan, agar faqat bu mexanistik va materialistik tushunchalar to'g'ri bo'lsa, u holda sifatlar va mental hodisalar mavjud bo'la olmaydi. Bu dilemmaning yyechimlari mexanistik tushunchalarga berilganlik darajasiga qarab farqlanadi. Eng katta ortodoks Gobbs bo'lgan deb aytish mumkin. Aftidan, u sifatlar va mental hodisalar o'z asosida moddiy va mexanik (materialistik monizm) deb da'vo qilgan.

Dekart "six ham kuymasin, kabob ham" degan maqolga muvofiq ish tutgan. Tabiat mexanistik va materialistik tasavvurlarga mos keladi, ruh esa mos kelmaydi. Bu ikki sohalarni mantiqan qarama-qarshi deb ta'riflab, u bir vaqtning o'zida ular bir-biriga ta'sir qiladi, deb uqtiradi. Shu bilan bir vaqtda, u sabab va oqibatning ayniyligini talab qiluvchi ta'sir tushunchasini ham qo'llaydi (bu bilan u psixofizik dualizmni dalillagan). Natijada Dekart mantiqiy dilemmaga duch keladi, zotan u dastlab mantiqan har xil deb belgilagan ikki omilning ma'lum darajada

ayniyligini qayd etadi. Bu dilemma empirik yo‘l bilan hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolar emas, balki mantiqiy-falsafiy, konseptual muammolar qatoriga kiradi.

Bu faylasuflarning birortasi ham bizning idrok qilishimizga shubha qilmaydi. Aksincha, ular uchun tayanch punkti bo‘lib tajriba bilan tasdiqlangan ruh va tana o‘rtasidagi korelyasiya xizmat qiladi. XVII asr faylasuflari uchun muammo bu korelyasiyani nazariy tushuntirishdan iborat bo‘ldi. Uni tushuntirishga urinib, ular mexanistik tushunchalarni ozmi, ko‘pmi dogmatik ravishda qo‘lladilar.

Ruh va tana/materiya o‘rtasida real sababiy aloqaning mavjudligini rad etib, Dekartning dilemmasini chetlab o‘tishga urinib ko‘rish mumkin edi. Ikkita soat bitta vaqtni ko‘rsatsa, bu ularning bir-biriga ta’sir qilishini anglatmaydi. Bu ularni Xudo bitta vaqtni ko‘rsatadigan qilib yasagani va yurg‘izganini anglatadi. Tana va ruh ham shunga o‘xshaydi. Men qo‘limni ko‘tarishni istasam va qo‘lim ko‘tarilsa, bu irodam qo‘limning ko‘tarilishiga sabab bo‘lgani tufayli ro‘y bermaydi. Buning ro‘y berishiga sabab, ruh va tanam bir-biri bilan shunday kelishuvda bo‘ladiki, mening bu ikki harakatim parallel ravishda ro‘y beradi.

Yangi davr falsafasi falsafiy mushohada yuritishning mazmuni va usuliga Yangi yo‘llar qidirish bilan belgilanadi. Tajribaga asoslangan bilimlar rivoji sxolastik usulni voqeiy dunyoga qaratilgan Yangi tarzda usul bilan almashtirishni taqozo qilar edi. Falsafiy tafakkurning Yangi usulini *Yangi zamon falsafasi* sifatida ifodalash mumkin. Taxminan XVI asrning oxiri – XVII asrning birinchi yarmida iqtisodiy rivojlanishning markazi asta-sekin Angliya, Nidyerlandiya va, qisman, Fransiyaga ko‘cha boshladi. Eng ko‘p darajada ishlab chiqilgan fanlar matematika va mexanika bo‘lib qoldi. Mutafakkirlar aynan mexanikani butun dunyoviy borliq sirlarini ochib beradigan kalit deb tushundilar. Nyutonning kashfiyotlari dunyoni o‘rab turgan hodisalarning mexanik sababiy bog‘lanishda ekanligi haqidagi tasavvurlarni mustahkamladi. Nyuton qarashlarida mexanik sababiyat chuqur matematik asoslarga ega ekanligini topdi. Shu bilan birga,

mexanika harakatni qabul qilsa ham, taraqqiyotni rad etadi, shuning uchun ham o'sha davr olim va faylasuflarining fikrlash tarzi ko'proq metafizik edi.

Rene Dekart bir vaqtning o'zida ham Yangi, ham eski davrlarning vakili hisoblanadi. Bir tomondan, u falsafaga Yangi mustahkam poydevorda asos solishga urinadi. Ikkinchi tomondan esa, u sxolastik an'anaga qattiq bog'langanki, buni jumladan, uning Xudoning borligiga doir dalillari ham isbotlaydi.

Fransuz faylasufi **Rene Dekart** (*Rene Descartes* - 1596-1650 yillar), ta'bir joiz bo'lsa, o'rgimchak olim bo'lgan: u biron-bir oliy o'quv yurtida o'qimagan, olimlar davrasida bo'lmagan, o'zi o'qib, o'zi o'rgangan. U 1621 yilgacha harbiy xizmatda bo'lgan. Harbiy xizmat Dekartning fan bilan shug'ullanishi uchun ma'lum darajada sharoit yaratgan: harbiy yurishlar, asosan, mart-oktyabr oylarida bo'lgan, qolgan vaqtda kitob o'qish, olimlar bilan suhbatlashish imkoni bo'lgan. Dekart bo'sh vaqtdan unumli foydalangan va fanning turli yo'nalishlarida ijod qilgan: analitik geometriya, to'g'ri burchakli koordinatalar tizimi Dekart nomi bilan bog'liq. U o'z tadqiqotlarida matematika metodini qo'llagan.

La-Flesh iezuitlar kollejida sxolastik falsafani o'rganadi. Unda kitobiy olimlikka shubha juda yerta uyg'onadi, zotan, uning fikricha, ko'pgina fanlarda ishonchli asos mavjud emas edi. Kitoblarni tashlab, u sayohat qila boshladi. Garchi Dekart katolik bo'lsa-da, ma'lum vaqt O'ttiz yillik urush davrida protestantlik tarafida qatnashdi. Uning qiziqishlari doirasiga chavandozlik, musiqa, qilichbozlik va raqs kirar edi.

23 yoshida u Germaniyada qishki xonadonlarda bo'lishi chog'ida o'z metodining asosiy g'oyalarini ta'riflaydi. Oradan o'n yil o'tib u tinchlik va ososyishtalikda tadqiqotlar bilan shug'ullanish uchun Gollandiyaga ko'chib keldi. 1649 --yilda u Stokgolmgga qirolicha Kristina huzuriga tashrif buyurdi. Shvetsiya qishi Dekartga haddan tashqari og'irlik qildi, u betoblanib yotib qoldi va 1650 yilning fevralida vafot etdi.

Uning asosiy asarlari jumlasiga "Metod haqida mulohazalar" ("*Discours de la methode*" 1637) va "Metafizik fikr-mulohazalar" ("*Meditations metaphysiques*" 1647) kiradi. Boshqa asarlaridan "Falsafa asoslari" ("*Principes de la philosophie*")

va “Aqlni boshqarish qoidalari” (*“Regles pour la direction de l’esprit”*) qayd etish mumkin. “Metod haqida mulohazalar” fransuz tilida yozilgan dastlabki falsafiy asarlardan biri hisoblanadi. Dekart ham lotin, ham fransuz tilida ijod qilgan.

Falsafiy fikr rivojida ham uning hissasi katta bo‘lgan. Dekart, falsafiy termin bilan aytganda, dualist. Uning fikricha, ikki narsa – nomoddiy va moddiy substansiya birlamchi asos sifatida mavjud. Har ikkisini oliy substansiya – Xudo boshqaradi.

Bilish masalasida Dekart quyidagicha fikrlaydi: bilish shubhadan boshlanishi kerak, chunki shubha danakni qum va tuproqdan tozalaydi. Hamma narsaga shubha bilan qarash falsafiy fikrning asosi bo‘lishi kerak [5, 473].

Dekart bilishda sezgi bilan bir qatorda inson aqliga yuqori baho beradi, natijada ratsionalizmni rivojlantiradi. U Bekonga qarama-qarshi o‘laroq deduktiv uslub tarafdori.

Bilishning vazifasi, Dekart o‘qitishicha, insonning tabiat kuchlari ustidan hukmronligini ta’minlashdan, inson tabiatini yanada takomillashtirishdan iborat.

Dekart fikricha: «Faqat mulohaza yurituvchi falsafa o‘rniga amaliy falsafa yaratish kerak. Uning yordami bilan suv, olov, havo, yulduz, osmon jismlari va boshqa bizni o‘rab turgan jismlarning kuch va harakatini bilib olib, biz ulardan xuddi o‘zimizning ustalarimizning hunarlari kabi foydalanishimiz mumkin. Shubhani hech qanday chegara bilan o‘lchash kerak emas, «men osmon, havo, yer, suv, ranglar, shakllar, tovushlar va boshqa hamma narsalar illyuziya va hayollar deb o‘ylayman» [5, 474], - deydi faylasuf.

Dekartning ta’limoticha, shubha biron-bir narsaning haqiqatda mavjud emasligining isboti emas, balki shartli vositadir. Shubha usulida haqiqatni yolg‘ondan ajratish haqiqiy bilimga ega bo‘lishdir. Shubhalanish faoliyati qanchalik chuqur va uzoq bo‘lmasin, u hamma vaqt mavjud bo‘lib qoladi.

Dekart g‘ayriilmiy, asossiz, dogmatik, bilimlarni inkor qilish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yib, buyuk mutafakkir sifatida bilim rivojining Yangi yo‘llarini ochishga xizmat qiladi. Lekin Dekart bilimning mustahkam, haqiqiy asosini nima tashkil qiladi, degan savolga to‘g‘ri javob berolmaydi.

Dekart ratsionalizmning yorqin vakilidir. Uning ta'limoti bo'yicha, aql, ya'ni nazariy tafakkur hissiy bilim, jonli mushohadaga nisbatan bilimning yuqori bosqichi bo'lib qolmasdan, balki mustaqil o'ziga xos bilimning manbaidir. U bizning sezgi a'zolarimiz bilishga qodir bo'lmagan bilimlarning ham manbaidir.

Dekartning borliq haqidagi ta'limotining tarixiy ahamiyati shundaki, unda eng muhimi tabiatni ilmiy tushunishdan kelib chiquvchi fizik nazariya mavjuddir. Dekart fizikasining eng yorqin tomoni uning materiya va harakat haqidagi ta'limotida aks etadi. Dekartning fizikasi uning sxolastikaga qarshi qaratilgan univyersal metodologik shubha metodi kabi XUP asr falsafiy fikrining eng muhim yutuqlaridan biridir. Materiyaning zarrachalari harakatdadir. Bu harakat asosan ana shu zarrachalar harakatining makonda o'zgarishidir. Materiyaning tashqarida turuvchi hech qanday kuch yo'q, faqat bundan xudo istisno. Materiya va harakat yo'qolmasdir. Sodir bo'layotgan xodisalar moddiy zarrachalarning o'rin almashinishidan, ularning bir-birlariga bevosita ta'siridan, zarracha shakllarining o'zgarishidan iborat.

Harakat miqdori zarrachalar harakati tizimini Yaratuvchi massadir. Bu harakat miqdori butun dunyoda doimiydir. Dekart ta'limoticha, dastlab materiya bir xil bo'lgan va yagona girdob shaklida harakat qilgan. Keyin materiya uch qismga ajratilgan yoki uch elementga ajratilgan: eng yirik zarrachalar yer elementini tashkil qilgan, kichkina, dumaloqlari havo elementini, eng noziklari va maydalari hamma narsaga kiruvchi suyuqlikni - olov elementini tashkil qilgan. Materiya girdobining aylana harakati materiyaning eng qattiq va yirik zarrachalarini uning markazidan chetlashtiradi, ulardan sayyoralar hosil bo'ladi. Markazda olov elementining yengil zarrachalari qoladi. Ulardan Quyosh va yulduzlar paydo bo'ladi. Sayyoralarning aylanishi Yangi mahalliy girdobning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan va natijada muayyan tizim vujudga keladi. Dekartning bu kosmologik ta'limoti tabiat rivojlanishiga ilmiy qarashni tayyorlashda katta ijobiy rol o'ynadi. Chunki uning bu kosmologik ta'limoti «ilohiy turtki» haqidagi tasavvurnigina yo'q qilib qolmasdan, balki tabiiy hodisalarni tarixiy rivojlanishi jarayoni orqali tushuntirishga intilardi. U dunyoning

moddiyligi va uning obyektiv qonuniyatlarga bo'ysunishi haqidagi tamoyilga suyanardi. Dekart kosmosni o'zining maxsus qonunlari asosida zamonda asta sekin rivojlanib boruvchi bir jism deb qarashi tabiatga tarixiy qarashni aks ettiradi.

Dialektika elementlari, Dekartning matematik kashfiyotlarida ham mavjud edi. Dekart bilishda to'g'ri ilmiy uslubning buyuk ahamiyatiga ishonadi. Dekart yozadi: «Hech qanday uslubsiz bironta haqiqatga yerishishni orzu qilgandan ko'ra, hech narsani orzu qilmagan ma'qul» [5, 480]. U to'g'ri uslubsiz bilishga intiluvchi kishini ko'rga o'xshatadi, garchi ko'rish qobiliyatiga ega bo'lsa ham. Uning fikricha, go'yoki insonda tug'ma g'oyalar mavjud. Bu tug'ma g'oyalar hech qanday tajribaga aloqador emas. Masalan: mantiq va matematikaning asosiy qonun-qoidalari insonda tug'ma bo'ladi. Haqiqiy bilishning asosi va mezoni faqat soddalik, aniq va ravshanlikdir. Bundan ko'rinadiki, Dekart fikricha, u faqat intellektga xosdir, ya'ni bevosita mulohazaga xosdir. «Yaxshi aqlga ega bo'lishning o'zi kifoya emas, balki uni to'g'ri qo'llay olish muhimdir» [5, 481]. «Shuningdek, hamma odamlarda aqliy tafakkur qobiliyati bir xil» [5, 482] bo'ladi, deydi Dekart. Insonlardagi intellektual daraja o'rtasidagi farq esa, uslubiy fikrga bog'liqdir. Uning ilmiy uslubining qoidalari shundan iborat.

Dekartning falsafiy fikrlari keyingi davr falsafasi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Agar Frensis Bekon Yangi zamonning xususiyati sifatida tabiatni o'rganishining tajribaga asoslangan tajribaviy usulini ishlab chiqishni boshlab berganligi bilan, Gobbs esa tajribaga asoslanganlikni chuqurlashtirganligi bilan belgilab bergan bo'lsa, fransuz olimi va faylasufi Rene Dekart aksincha, tajribaga aql bergan ma'lumotlarning oddiy amaliy tekshirish o'rnini ajratib, *afzallikni aqlga qaratdi*.

Yangi zamon *ratsionalizmining* asoschisi bo'lgan Dekart barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan usulni ishlab chiqish vazifasini qo'ydi, u ko'p hollarda bilimlar natijasini belgilab beruvchi inson aqlida borligi taxmin qilingan «*tug'ma g'oyalar*» yoki *aksiomalar* deb atalgan narsalarni taqozo etar edi. Tug'ma aksiomalar qatoriga u matematika va mantiqning ko'pchilik qoidalarini qo'ydi,

masalan, «to‘g‘ri to‘rt burchak to‘rtdan ko‘proq tomonlarga ega emas» [5, 494]. Dekartning tabiatga qarashlari mexanistik xususiyatga ega. Xudo dunyoning mavjud bo‘lishlik va taraqqiyotiga birinchi turtkini beradi, ammo keyinchalik uning rivoji moddaning mustaqil ijodiy enyergiyasi orqali rag‘batlantiriladi. Dekart *evolyusiya* g‘oyasini ishlab chiqqanlarning birinchilaridan biridir (garchi mexanistik asosda bo‘lsa ham). U bu g‘oyani tabiat haqidagi barcha soha ta‘limotlariga – yulduzlar va sayyoralarning tashkil topishidan tortib o‘simliklar, hayvonlar va insonlarning paydo bo‘lishlarigacha tatbiq etdi. Dekart fikricha, yulduz va sayyoralarning tizimlari moddaning quyunsimon harakati natijasida tashkil topadilar. Dunyoviy modda cheksiz, bir xil bo‘lib, bo‘shliqqa ega emas va cheksiz ravishda bo‘linishi mumkin. U mexanik qonunlar tomonidan belgilangan to‘xtovsiz ravishda miqdoriy va sifatiy jihatdan o‘zgarib turadigan holatdadir. Tirik mavjudotlar dunyosi ham ushbu qonunlarga bo‘ysunadi: hayvonlar – bular murakkab mashinalardir. Inson esa, hayvonlardan farqli o‘laroq, aqlga ega, shuning uchun u mexanika qonunlari doirasidan tashqariga chiqadi. Dekart moddiy javhar bilan bir qatorda (uning tomonidan uzunlik sifatida tushuniladigan) Xudoning va uning tomonidan Yaratilgan ruhiy, fikrlovchi javhar jonning mavjudiligini tan olishga majbur bo‘ldi. Shunday qilib, Dekart falsafasining alohida xususiyati *dualizm* edi.

Dekart uchun muhim muammo haqiqat bilimlarni hosil qilish va usul muammosi ediki, uning vositasida ana shunday bilim olish imkoniyati vujudga kelsin. Bilim mohiyati shunda ediki, har qanday bilimga yoyiladigan *keskin shubhaning* taqozosi haqiqiy bilim olish imkoniyatini tasdiqlashga olib kelishi mumkin. Men *barcha narsaga shubha* qilishga boshlayman [5, 346], - deb mulohaza yuritadi Dekart, negaki, shuni tushunamanki, meni yovuz va xiylagar shayton yoki qandaydir boshqa bir aldamchi aldayapti. Ammo shu bilan birga men shunga shubha qilmaymanki, mening *shubham mavjuddir*, ya‘ni fikr bordir. Shu yerdan Dekartning mashhur xulosasi sarchashma oladi: «Men fikrlayapman, demak, men mavjudman!» [5, 449]. Fikr haqiqiyliги va fikrlovchi mohiyati borligidan, u ashyolar borlig‘ining haqiqiyliğiga etib boradi.

Shunday qilib, Dekartning bilish usulini tahliliy yoki aqliy sifatida ta'riflash mumkin. *Aqliy* (ratsionalizm) - aql yoki fikrni bilish manbai va uning haqiqiyligi me'yor deb tan oluvchi falsafiy qarashdir. *Ratsionalizm* usuli fikrning aniqligi va uning o'zining amallarining bir-biriga qarama-qarshi emasligini, fikr obyektini oddiy qismlarga bo'lib va ularning har birini alohida o'rganishni, keyin esa fikr harakatini soddadan murakkabga tomon borishini taqozo etadi. Dekart fikricha, hech qanday uzoq narsa yo'qki, uni kashf etishga yerishib bo'lmasin.

Fransuz faylasufi Rene Dekart bilan nemis faylasufi Gotfrid Leybnits qatori, golland faylasufi Benendikt Spinoza ham klassik ratsionalistik maktabga mansub. Spinoza – bu ulkan sistemalarning eng muvaffaqiyatli ijodkoridir. Evklidning geometriyasi Dekart qatori Spinozani ham ratsionalistik sistemani tuzishga ruhlantirdi. Spinoza insonning aqli aniq qoidalar va deduktiv xulosalarga tayanib, mutlaq ishonchli bilimga yerishishga qodirligiga qattiq ishonar edi.

Ingliz sensualist faylasuflari, xususan, Jon Lokk tomonidan tanqid qilingan Dekart ratsionalizmi o'zining ko'p izdoshlariga ega edi. Ularning ichida ratsionalizm rivojiga katga hissa qo'shganlardan biri Spinozadir.

Benedikt (Barux) Spinoza Amstyyerdamda 1632 yilda yahudiy oilasida tug'ildi. O'sha davrda Gollandiyadagi diniy erkinlik sharoiti tufayli ko'pchilik yahudiylar Portugaliyadagi diniy ta'qiblardan qochib Gollandiyada panohtopgan edilar. U dastlabki ma'lumotini yahudiy maktabida olib, unda Talmud matnlarini, Tavrotni o'rganadi. Talmud — bu yahudiylarning muqaddas kitobi Tavrotning sharhi bo'lib, uni og'zaki Tavrot deb ham ataydilar. Spinoza yahudiy maktabida olgan bu ma'lumotidan qoniqmaydi. U Dekart falsafasi bilan chuqur tanishib chiqadi va o'zida uning katta ta'sirini his qiladi. Xuddi shu Dekart falsafasining ta'siri natijasida tabiiy fanlar va matematika sohasida o'z ma'lumotini yana ham chuqurlashtiradi. Uning matematik fikrlash usuli, xususan geometrik fikrlash usuli Spinozani o'zita jalb qiladi. Masalan, u 1663 --yilda yozilgan «Geometrik usulda bayon qilingai Karteziy falsafasining tamoyillari» va «Geometriyada qo'llaniladigan bayon qilish usuli haqida» kabi asarlarida hech ikkilanmasdan Dekart ratsionalizmiga va «geometrik usuli»ga tafakkurning asosiy tamoyillari

sifatida qarashni shakllantiradi. Spinoza butun umri davomida Gollandiyada yashadi. Gollandiya o'sha davrda nisbatan ilg'or mamlakat edi. U yyerda Yevropa qit'asida birinchi burjua inqilobi sodir bo'lgan edi. Lekin shunga qaramasdan, Spinoza bu yyerda ham yahudiy dini tarafdorlari tomonidan ham, protestant va katolik diniy doiralari tomonidan ham ayovsiz ta'qiblarga uchrayli. 1670 --yilda u o'zining «Ilohiy-siyosiy risola» asarini yozadi. Bu asar amalda Tavrotni birinchi marta tanqid qilishga urinish namunasi edi.

Shunday qilib, u ilmiy tarixshunoslikning asoslarini Yaratishga harakat qilgan. Bu asarda bayon qilingan g'oyalar Spinozaning ilohiyotchilar, diniy mutaassiblar tomonidan ta'qib qilinishiga sabab bo'lgan. 1656 --yildayoq Spinoza o'z g'oyalari uchun yahudiylar jamiyatidan quvg'in qilinadi. Quvg'ingacha Spinoza ma'lum darajada obro' qozongan, Geydelberg universiteti professorligiga ham taklif qilingandi. Lekin shunga qaramasdan, u quvg'inlikda va qashshoqlikda yashagan. U o'sha davr madaniyat va ma'rifat markazlaridan uzoqda yashagan, lekin hamma vaqt davrning eng nufuzli ilm vakillari bilan muloqotda bo'lgan. U B.Boyl va X.Gyuygenlar bilan do'st bo'lgan, Leybnits bilan xat yozishib turgan, o'limidan bir oz ilgari u bilan shaxsan uchrashgan. Yuqorida eslatilgan asarlardan tashqari u 1662---yilda «Aqlni takomillashtirish haqida risola», «Siyosiy risola» kabi asarlarini yozgan. **Spinoza** 1677---yilda Gaagada o'pka sili bilan xastalanish oqibatida 45 yoshida vafot etgan.

Spinoza falsafasining asosiy g'oyalari uning «Axloq» deb atalgan asarida bayon qilingan. Gegel Spinoza falsafasini «Dekart falsafasini mutlaq haqiqat shaklida obyektlashishidir» [6, 147] deb baholagan.

Albatta, Spinoza falsafasining shakllanishiga o'sha davrning boshqa faylasuflarining ta'siri ham sezilarli bo'lgan. Jumladan, ko'p hollarda u Gobbs falsafasi tasirida bo'lgan. Spinoza dunyoqarashidagi panteistik g'oyalar ko'proq J.Bruno ta'limoti ta'sirida shakllangan.

O'z falsafiy tizimining asosiga Spinoza yagona substansiya haqidagi ta'limotni qo'yadi. U shunday deb yozadi: «Faqat bitta substansiya haqiqiydir. Uning atributlari (ajralmas sifat) fikrlash va ko'lam yoki tabiatdir» [6, 149]. Uning

yagona substansiya haqidagi ta'limoti «Axloq» asarining «Xudo haqida» deb ataluvchi birinchi qismida bayon qilingan. Spinoza talqinidagi xudo Dekart falsafiy tizimining hamma atributlarini o'z ichiga oladi.

Uningcha, Xudodan tashqari hech qanday boshqa substansiyaning bo'lishi mumkin emas. Spinoza «Axloq»ning birinchi qismi 14-tasdig'ida shunday deb yozadi: «Xudodan boshqa hech qanlay substansiya mavjud ham bo'la olmaydi, anglashilmaydi ham» [6, 97]. Bu tasdiqdan o'z navbatida 15-tasdiq kelib chiqadi. Unda shunday deyiladi: «Nimaiki xudoda mavjud ekan, xudodan tashqarida bo'la olmaydi, bilinib ham bo'lmaydi» [6, 191]. Bu tasdiqlardan kelib chiqadigan dalillardan xulosa qilish mumkinki, Spinoza xudoni substansiya bilan tenglashtiradi, ularni bir xil narsa deb biladi. Xudo tabiat ustida turuvchi mohiyat emas, tabiatdan tashqaridagi Yaratuvchi ham emas. Xudo tabiatning immanent (ichki xos xususiyat) sababi sifatida tabiatning o'zida mavjuddir [6, 198]. Shunday qilib, Spinoza shaxs sifatidagi xudoni inkor qiladi, unga olamning univyersal sababchisi deb qaraydi. Xudoni bunday tushunish turli xil munozaralarga sabab bo'ladi. Spinozaning bu g'oyalarida panteizm mag'zi namoyon bo'lgandi.

Spinoza bir maromda, kamtarona hayot kechirdi. Optik uskunalar uchun linzalarni silliqlash bilan tirikchilik qildi. Bu unga erkin va mustaqil bo'lish imkoniyatini berdi. U universitetda professor lavozimini egallash haqidagi taklifni rad qildi va o'zini butkul falsafa bilan shug'ullanishga bag'ishladi. Spinozaning falsafasini ateistik va materialistik deb aybladilar, ammo hech kim uning turmush tarzini tanqid qilmadi. Uning dunyoviy ehtiros va hovo havaslardan uzoq osoyishta hayoti o'z ta'limoti bilan to'liq uyg'unlikda yashovchi buyuk faylasufning turmush tarzini ifoda etadi.

Spinoza lotin tilida “Xudo, inson va uning baxti haqida qisqacha traktat” (*Tractatus brevis de Deo et homine ejusque felicitate*)ni Yaratdi. Bu asarning nomi Spinoza falsafasining etakchi mavzulari – Xudo, inson va uning baxtiga ishora qiladi.

Taxminan 1661 --yilda u tug'ilmagan “Aqlni takomillashtirish haqida traktat”i (*Tractatus de intellectus emedatione*)ni Yaratdi. Bu traktat faqat

Spinozaning o'limidan keyin chop etildi. Unda Spinoza oliy ne'mat haqidagi asosiy etik masalani muhokama qiladi va eng oliy ne'matlar sifatida ko'pchilik odamlar yerishadigan narsalar, aynan – hurmat, boyluk va lazzatlanishni rad etadi. Spinoza uchun oliy ne'mat masalasi bilishning oliy shakli masalasi bilan bog'liq. Bu traktatda u bilishning to'rt yo'lini ko'rsatadi. 1) Biz nima haqdadir eshitganimizda aytilganlarga doir biron-bir shaxsiy tajribamiz bo'lmagani holda, bu nimanidir bilamiz. Masalan, biz shu asno tug'ilgan kunimizdan xabar topamiz. 2) Biz bevosita shaxsiy tajribamiz yordamida bilamiz. 3) Biz mantiqiy xulosa yordamida bilamiz. Bunda biz deduksiya metodini qo'llab, to'g'ri fikrlarni to'g'riligini bizga ma'lum bo'lgan boshqa fikrlardan keltirib chiqaramiz. Bu bilishning ishonchli yo'li hisoblanadi, ammo bu xulosalarimiz kelib chiquvchi to'g'ri fikrlarga ega bo'lishimizni nazarda tutadi. 4) Bilishning to'rtinchi va oxirgi yo'li bevosita intuitsiyadan iborat. Bu bizga aniq va ma'lum bilim beruvchi, narsalarning mohiyatini ko'rsatuvchi yagona yo'l hisoblanadi. Xullas, Spinozaning to'rtinchi bilish yo'li bilan Dekartning intuitsiya va aniqlikka doir qarashi o'rtasida o'xshashlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bilishning birinchi yo'li ikkilamchi va ishonchsiz hisoblanadi. Mohiyatan ikkinchi yo'l ham ishonchsiz, chunki biz tajribamizni yolg'on talqin qilishimiz mumkin [Dekartning hissiy tajribaga qarshi e'tirozlariga solishtirish mumkin]. Uchinchi yo'l yuqorida qayd etilganidek, asos dalillarning ishonchliligini nazarda tutadi. Shuning uchun, agar biz to'g'ri bilim olishni istasak, to'rtinchi – bevosita intuitiv tushunish yo'lidan borishimiz kerak. Agar skeptik o'z-o'zini vayron qilishga intilmasak, unda biz ayrim ma'noda chindan ham ishonchli bilimga ega ekanligimizni rad eta olmaymiz. Masalan, biz bilishning dastlabki uch yo'li ishonchli bilimga olib bormasligi haqida ishonchli bilimga ega ekanligimizni aytishimiz mumkin. Bu bizning to'rtinchi bilish turiga ega ekanligimizni ko'rsatadi [6, 205]. Spinozaning ratsionalizmini asoslovchi dalil taxminan shunday.

1663-yili Spinoza Dekart falsafasining tamoyillariga doir kichkina ilmiy asar va 1670 yili anonim ravishda "Diniy-siyosiy traktat"i (*Tractatus theologico-politicus*)ni e'lon qildi. Unda, falsafa bilan teologiyaning prinsipial farqi haqidagi

tezidan kelib chiqib, Spinoza Injilni tarixiy tadqiq qilishning asoslarini Yaratdi. “Falsafa – bu maqsadi haqiqat bo‘lgan fandır. Teologiya – fan emas” [6, 158]. Uning maqsadi taqvodor hayot kechirish uchun talab qilinuvchi amaliy xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqarishdan iborat. Traktat juda katta bahslarga sabab bo‘ldi.

“Siyosiy traktat” (*Tractatus politicus*) uning o‘limidan keyin e‘lon qilindi. Unda Spinoza bag‘rikenglik (tolyerantlik)ning ijobiy va salbiy tomonlariga e‘tibor beradi, ammo eng muhimi e‘tiqod erkinligi, fikrlash erkinligi va o‘z fikrini ifodalash erkinligi hisoblanadi. Spinoza o‘zining siyosat haqidagi tushunchasini inson tabiati, ya‘ni insonning mohiyati nimadan iborat ekanligi haqidagi o‘z ta‘limoti yordamida asoslashga urinadi. Bu yashash va hayotni asrash istagidir. Ammo bundan nima kelib chiqishini tushunish uchun biz Spinozaning falsafasi bilan yanada batafsilroq tanishishimiz mumkin.

Spinozaning bosh asari “Etika yoki Geometrik tartibda aytilgan etika” (*Ethica ordine geometrico demonstrata*) ham uning o‘limidan keyin e‘lon qilingan. Bu asarning mazmuni bir vaqtning o‘zida ham etika, ham metafizika tashkil qiladi. Asarning tuzilishiga kelsak, u matematik sistema tarzidagi geometriya ko‘rinishida tuzilgan. Spinoza sakkiz ta‘rif va etti qoida (aksiomalar)dan boshlaydi va ulardan turli metafizik-etik fikrlar (teoremlar)ni keltirib chiqaradi. To‘g‘ri biz bu xulosalarning qat‘iy mantiqiy ahamiyatiga shubha bilan qarashimiz mumkin. Ammo bu asar tugal falsafiy sistema ekanligi shubhasizdir.

Bir qarashda etika quruq va abstrakt ilmiy ish bo‘lib ko‘rinadi. Ammo uning rasmiy “devori” ortida insonning qismati haqidagi jo‘shqin g‘oyalar yotadi. Ular o‘tkinchi va bema‘ni tashvish va ehtirolardan erkin va osoyishta hayotga olib boruvchi yo‘lni ko‘rsatadi. Bu hayotda har bir inson o‘ziga olamga abadiyat (*sub specie aeternitatis*) nuqtai nazaridan qarashga qodirdir. Bu erkin hayotda inson tabiatning asosiy qonunlarini biladi va tan oladi, bu bilan uning ruhi taskin topadi, shuningdek, u zaruratni tushunish orqali erkinlikka yerishadi. Shunday qilib, matematik shakl ortida biz insonning olamdagi o‘rniga doir ma‘lum qarashga duch kelamiz.

Etikaning “Xudo haqida” nomli birinchi qismi olamning asosiy tuzilishiga bag‘ishlanadi. Inson unda tobe o‘rin egallashi, ammo o‘zining aqli yordamida Xudoni tushunishi va shu yo‘l bilan eng oliy ne‘matga yerishishi mumkinligi nazarda tutiladi. “Tabiat va ruhning kelib chiqishi haqida”gi ikkinchi qism olam va inson haqidagi metafizik ta‘limotni yanada chuqurroq ko‘zdan kechiradi. “Affektlarning kelib chiqishi va tabiati haqida”gi uchinchi va “Insoniy qullik yohud affektlarning kuchi haqida”gi to‘rtinchi qismda markaziy o‘rinni affektlar haqidagi ta‘limotlar egallaydi. Inson turli tashqi kuchlar o‘ziga muttasil ta‘sir ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yadi va buning natijasida uning ruhi muvozanat holatida bo‘lmaydi. Odamlar o‘zlarini baxtsizliklarga olib boruvchi harakatlarni sodir etadilar. Ehtiroslar insonni jilovlaydi va chegaralaydi hamda uni boylik, shuhrat va lazzat ketidan quvlovchi qulga aylantiradi.

“Aqlning qudrati yohud inson ozodligi haqida”gi beshinchi qismda Spinoza bu ehtiroslar o‘yinidan qanday qutulish mumkinligini ko‘rsatadi. Qutulish dono insonning olamning zarur mohiyatiga chuqur kirib borishi hamda u bilan qolgan olam o‘rtasidagi chegarani yo‘qotishidan iborat bo‘ladi.

Ammo Spinozaning ehtirosdarni ehtirossiz tadqiq qilishi barcha affektlar yoki sezgilarning rad etilishini anglatmaydi. Spinoza yaxshi va yomon ehtirosdarni bir-biridan ajratdi. Bizning yashash faolligimizni oshiruvchi sezgilar yaxshi hisoblanadi. Yomon sezgilar esa bizni passiv qilib qo‘yadi. Faol holatda biz o‘z harakatlarimizga ko‘proq darajada sababchi bo‘lamiz. Bu holatda biz ko‘proq o‘zimizdan kelib chiqamiz va nisbatan erkin bo‘lamiz (Spinozaning erkinlik haqidagi ta‘rifiga muvofiq) [6, 507].

Bu o‘rinda faollik deganda tashqi halovatsizlik yoki talvasali harakatlar tushunilmaydi. Spinozaning fikricha, biz aynan ruhiy kuchimiz, asl mohiyatimiz bizning harakatlarimiz va hayotimizni yo‘lga solishi uchun tasodifiy tashqi holatlardan xalos bo‘lishimiz kerak. Insonning asl mohiyati bizning yakkalik holatimizni engishga qaratilgan faol intellektual bilishdan iboratdir. Bunga ko‘ra biz o‘zimizni tabiat (Xudo) bilan aynan deb hisoblay olamiz. Shuning uchun ham “Etika”ning beshinchi, so‘nggi bobi “Aqlning qudrati yohud inson ozodligi

haqida” deb ataladi. Aqlimiz (intellektual) va hamma narsalarning Xudo bilan aloqasi faol intellektual bilish yordamida biz o‘zimiz ham erkinlikka yerishamiz, Zero endi bizning aynan o‘xshashligimiz hammani qamrab oladi va endi yakkaolan hodisalarning o‘tkinchiligi va o‘zgaruvchanligi oldida o‘zini yo‘qotuvchi mayda o‘zligimiz bilan chegaralanmaydi.

Bunday bilish yordamida inson Xudoga intellektual muhabbatda (*amor intellectualis Dei*) oliy baxtga yerishadi. Shu bilan bir vaqtda aynan Xudo insonning Xudoga muhabbatiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun Xudoga intellektual muhabbat bu faqat Xudoga *nisbatan* muhabbat bo‘lmay, balki Xudodan *belgilangan* muhabbat hamdir. Bizning Xudoga muhabbatimiz Xudoning o‘z muhabbati hisoblanadi. “Ruhning Xudoga bo‘lgan bilishga oid muhabbati Hudoning muhabbatining o‘zidir va bu muhabbat bilan Xudo O‘zini sevadi [...]. Ruhning Xudoga bo‘lgan bilishga oid muhabbati Xudo o‘zini sevuvchi cheksiz muhabbatning bir qismini tashkil qiladi” [6, 612].

Spinozaning inson narsalarni ratsional intuitsiya yordamida bilishi mumkinligi haqidagi fikri uning ratsionalist ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir vaqtda u, Dekart singari, matematikada fanning idealini ko‘ruvchi deduktiv mutafakkir hisoblanadi. Ammo Dekart asosan mutlaq ishonchli aksiomalarni izlash bilan shug‘ullangan, bunda deduksiyaning o‘zi ikkinchi planda turgan. Spinoza esa aksiomalardan boshlaydi va oqibatlarga, ya’ni sistemaga alohida etibor beradi. *Etikaning* birinchi sahifasida biz *substansiyaning* asosiy tushunchasi ta’rifiga duch kelamiz: “*Substansiya* deganda men o‘z o‘zida mavjud bo‘lgan va o‘zi o‘zi tasavvur qilinadigan, ya’ni tasavvur qilish u hosil bo‘lishi kerak bo‘lgan boshqa narsani tasavvur qilishni talab etmaydigan narsani tushunaman” [6, 361].

Xo‘sh, substansiya nima? Oldin biz bu lotincha so‘zni, masalan, Aristotelning falsafasida tushunilgan alohida narsalarni belgilash uchun ishlatgan edik. Substansiya bu mustaqil mavjud bo‘lgan narsalar demakdir, deb aytilgan edi. Aristotel sariq eshik yoki yumaloq minoraga o‘xshash alohida narsalarni *sariqlik* va *yumaloqlik* xossalari qarshi qo‘yishda ularni substansiyalar deb belgilaydi. Bu xossalarning mavjudligi nisbiy hisoblanadi, chunki ularga faqat alohida

narsalarning xossalari sifatida duch kelish mumkin. Spinozaning substansiya konsepsiyasini tushunish usullaridan biri u Aristotel ta'rifining ma'lum darajada mutlaqlashtirilishidir, deb ko'rsatishdan iborat: "Substansiya – bu *mustaqil*, mutlaqo mustaqil (mavjud) bo'lgan va *mustaqil*, mutlaqo mustaqil deb tushuniladigan narsadir" [6, 364]. Substansiya – to'liq mustaqil mavjud bo'lgan va faqat o'z holicha, boshqa biron-bir narsaning ishtirokisiz tushuniladigan narsa, deb aytish substansiyaning alohida narsalar sifatidagi tushunchasidan voz kyechishni anglatadi. Sariq eshik faqat shuning uchun mavjudki, uni kimdir yasagan. Sariq eshik tushunchasi eshik romiga hamda eshikni ochish va yopish singari harakatlarga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, eshik biron-bir narsalarga to'liq bog'liq bo'lmagan holda mavjud emas. Uni, shuningdek, eshik bo'lmagan boshqa biror narsani tushunmasdan to'liq tushunib bo'lmaydi. Shu bois, Yangi mutlaq ta'rifga binoan, eshik substansiya hisoblanmaydi. Tegishli ravishda, biz boshqa alohida narsalar, organizmlar, jonsiz tanalar va inson tomonidan Yaratilgan predmetlarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Har qanday holatda narsalar *boshqa* alohida narsalar bilan chegaralangan bo'lishi kerak. Bu chegaralash doimo shunga olib keladiki, alohida narsalarni boshqa biror narsaga bog'liq bo'lmagan holda tushunib bo'lmaydi. Tegishli chegara va u chegaralayotgan narsa yertami-kechmi narsa ta'rifining bir qismiga aylanishi kerak. Bu boshqa nimadandir u yoki bu usul bilan chegaralangan birorta alohida narsa Yangi ta'rif ma'nosida substansiya deb hisoblana olmasligini anglatadi. Xo'sh, unda, bu ta'rifga binoan, nima substansiya bo'lib hisoblanadi? Biz shuni aytishimiz kerakki, substansiya bitta va cheksiz, zotan uni har qanday cheklash ta'rifga zid bo'ladi. Substansiya bittadir, chunki dunyoda ikkita (yoki undan ortiq) substansiya bo'lishi mumkin emas. Aks holda bir substansiyaning ikkinchi (boshqa) substansiya(lar)ga nisbatini bizning substansiyani to'liq tushunishimizga ham kiritish zarur bo'ladiki, bu ham ta'rifga ziddir. Substansiya shu ma'noda cheksiz hisoblanadiki, uni zamon ma'nosida yoki boshqa har qanday ma'noda chegaralab bo'lmaydi.

Shuningdek, substansiyadan tashqarida unga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan biron-bir narsa ham mavjud bo'la olmaydi. Zotan, agar biz substansiyani to'liq

tushunganimizda, bu boshqa narsani unga kiritishimiz kerak bo'lardi. Ammo ta'rifga muvofiq, substansiya faqat va faqat uning o'zi orqali tushunilishi mumkin. Spinoza bu holatni substansiya *o'zining sababi (causa sui)* hisoblanadi [6, 372], deb ifodalaydi.

Agar Xudo mavjud bo'lsa, U substansiyadan farqli nimadir bo'lishi mumkin emas, chunki substansiyaning bu boshqa narsa, Xudoga nisbatini o'zimizning substansiyaga doir tushunishimizga kiritishimiz zarur. Shunday qilib, substansiya Xudodan farqli bo'lishi mumkin emas. Substansiya *Xudo* demakdir.

Xuddi shu singari, Xudo tabiatdan ham farqli bo'lishi mumkin emas. Substansiya tabiat demakdir.

Xullas, Spinozaning ta'limoti monizmdan iborat: hamma narsa bir va hamma narsa shu birning asosida tushuniladi [6, 373].

Xudo ham, tabiat ham substansiya bo'lgani tufayli, biz panteizmga kelamiz: Xudo bilan tabiat uzviy birlashadi. Substansiya Yaratilgan narsa emasligi, tabiat esa substansiya bo'lgani tufayli, biz Xudo tabiatning Yaratuvchisi [6, 375], deya olmaymiz. Bu iudaistik va xristianlik doiralari Spinozaning falsafasiga nima uchun salbiy munosabatda bo'lganini tushuntiradi.

Xo'sh, unda substansiya nima? Agar bu savolni berayotib, tasavvur qilish yoki ma'lum tarzda tasvirlash mumkin bo'lgan nima haqidadir so'ralayotgan bo'lsa, unda savol noto'g'ri qo'yilgan. (Masalan, biz uchburchak, kvadrat va shu kabilarni tasavvur qilishimiz mumkin, shu ma'nodaki, ularning ichki obrazinin chizib bera olamiz. Biz chizishda davom etamiz va o'n burchakli, o'n bir burchakli ko'pburchakni tasvirlashimiz mumkin. Ammo yertami, kechmi tasavvur qilinayotgan ko'pburchakning tomonlarini hisoblashga qodir bo'lmay qolamiz. Bu ma'noda biz 1001 burchakli ko'pburchakni tasavvur qilib, 1001 burchakli ko'pburchakni 1002 burchakli ko'pburchakdan farqlay olamiz. Ammo biz ular haqida shu ma'noda o'ylashimiz mumkinki, biz 1001 va 1002 burchakli ko'pburchak tushunchalariga egamiz. Boshqacha aytganda, biz o'ylay, fikrlay oladigan narsalar ichki suratini chiza oladigan narsalarga qaraganda ko'proqdir) [5, 32].

Modomiki, substansiyani yuqorida ko‘rilgan ma’noda tasavvur qilish mumkin emas ekan, unda biz Xudoga o‘zimiz tasavvur qila oladigan atributlarni yuklashimiz mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Lekin biz substansiya haqida o‘ylashimiz, u haqda tushunchaga ega bo‘lishimiz mumkinmi? Ma’lum ma’noda mumkin. Substansiya bizning qarshimizda ikki usulda, aynan – ko‘lamli tarzda va fikr tarzida namoyon bo‘ladi. Bu substansiya bizga ko‘rinadigan va qarshimizda o‘zini namoyon qiladigan son-sanoqsiz usullarning ikkitasidir. Spinoza ikki atribut: tafakkur va ko‘lamni ko‘rsatadi. Ular bitta fundamental substansiyani namoyon qilishning bir xilda muhim shakllari hisoblanadi.

Alohida ko‘lamli narsalar, masalan, mana shu kitob ko‘lam atributining moduslari (lotincha *modus*), alohida fikrlar esa – tafakkur atributining moduslari hisoblanadi [6, 379].

Biz bu ikki substansiya atributining turli moduslari bilan bevosita alohida bo‘lamiz, ammo substansiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaqinlashish imkoniyatiga ega emasmiz. Bu holatga quyidagi misol yordamida oydinlik kiritishga urinib ko‘ramiz. Aytaylik, biz predmetni ikki xil rang – yashil va qizilga bo‘yalgan oyna orqali ko‘ryapmiz va uni bevosita ko‘rish imkoniyatiga ega emasmiz. Predmet yo yashil, yo qizil narsa tarzida idrok qilinadi. Yashil oyna (birinchi atribut) orqali kuzatilayotgan qizil predmet (bir modus) bilan qizil oyna (ikkinchi atribut) orqali kuzatilayotgan qizil predmet (ikkinchi modus) o‘rtasida moslik – ya’ni tafakkur moduslari bilan ko‘lam moduslari o‘rtasidagi yoki yashil tarzida ko‘rilayotgan narsa bilan qizil tarzida ko‘rilayotgan narsa (ikki modus) sababiy aloqaning mavjudligi tufayli ro‘y bermaydi. Bu biz bitta predmet (substansiya)ga har xil oynalar (atributlar) orqali qaralayotganimiz tufayli ro‘y beradi [6, 381].

Bundan chiqdi, alohida fenomenlar, shu jumladan alohida individlar ham, bu ikki substansiya atributlarining oz yoki ko‘p darajada murakkab moduslar ekan. Oxir natijada hamma narsalar substansiya orqali bog‘lanadi. Hamma narsalar substansiyaga nisbatan nisbiy yoki cheklangan darajada mavjud bo‘ladi. (Ko‘lam va tafakkur, Dekartda bo‘lgani singari, ikki mustaqil asosiy element

hisoblanmaydi, - Dekartning *res cogitans* va *res extensa* siga qarang, - balki bitta substansiyaning ikki aspektini tashkil qiladi) [5, 35].

Substansiya bilan atribut o'rtasidagi munosabat sababiy aloqa hisoblanmaydi. Substansiya ro'y beruvchi hodisalar ikkala atributning har biridagi tegishli hodisalarning sababi emas. Nimaiki ro'y bersa, substansiyada ro'y beradi, ammo ikki aspekt – ko'lam va tafakkurda namoyon bo'ladi.

Substansiya bilan atributga o'zaro munosabatda bo'lgan ikki fenomen deb qarash va ular o'rtasidagi aloqa yoki munosabat haqida gapirish ham mutlaqo noto'g'ri bo'ladi. Atributlar faqat substansiyaning namoyon bo'lish usullari hisoblanadi.

Shuningdek, majburlash deganda bir hodisaning boshqa hodisaga uning irodasi yoki mohiyatiga qarshi ravishda ta'sirini tushunadigan bo'lsak, biz majburlash haqida ham gapira olmaymiz. Zero, biz bu o'rinda aslida faqat bitta fenomen – substansiyani ko'rib chiqmoqdamiz.

Tafakkurda va ko'lam sohasida ro'y beruvchi hodisalar substansiyaning majburligi natijasi bo'lishi mumkin emas, zotan tafakkurda ham, ko'lam sohasida ham ro'y beruvchi barcha hodisalar faqat substansiyada ro'y beruvchi hodisalarning namoyon bo'lish shakllari hisoblanadi.

Angliyada Yangi davr falsafasining vakillaridan biri **Tomas Gobbs** (1588—1679 yillar) edi. U falsafiy qarashlari nuqtai-nazaridan Bekonning davomchisi edi. Gobbs ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Ma'lumotini Oksford universitetida oladi. Bir qancha vaqt Frensis Bekonning kotibi sifatida xizmat qiladi. Gobbs Galiley, Gassendi va boshqa ilg'or mutafakkirlar bilan shaxsan tanishishga musharraf bo'ladi. Angliya inqilobining dastlabki paytida Gobbs Fransiyaga ketadi. Xorijda u qirol tarafdorlari bilan aloqada bo'ladi. Kromvel davrida vataniga qaytib keladi. Qirollikni qayta tiklash davrida esa, u o'sha qirol tarafdorlari va klyerikallar tomonidan ta'qibga uchraydi. Gobbs falsafiy trilogiya yozgan. U «Tana haqida» (1653), «Odam haqida» (1658), «Fuqaro haqida» (1672) kabi asarlardan tashkil topgan. Uning uchinchi kitobiga o'z mavzusi jihatidai Gobbsning davlat va

ijtimoiy tuzumga bag'ishlagan «Leviafan» (1677) asari ham kiradi. 88 yoshida u Gomyerni ingliz tiliga tarjima qiladi.

Gobbs o'z falsafiy talimotini ilohiyotga, sxolastikaga va o'rta asrchilik turli soxta fanlariga qarama-qarshi qo'yadi. Uniig ta'limoticha, falsafa ilohiyotni, ya'ni xudo va uning atributlari haqidagi ta'limotni inkor qiladi. Falsafa, shuningdek, astrologiya va shunga o'xshash soxta fanlarni ham inkor qiladi. Falsafaga xudojo'ylik maqbul ko'rinmaydi, chunki uning manbai tabiiy aql emas, balki cherkov otaxonlarining nufuzidir. Shuning uchun bu masalalar fanga emas, din sohasiga taalluqlidir.

Gobbs sxolastikaga keskin qarshi chiqish bilan birga qadimgi dunyo idealistik falsafasiga nisbatan ham salbiy munosabatda bo'ladi. U bir tomondan, o'rta asr sxolastikasiga qarshi kurash olib borsa, ikkinchi tomondan, o'z davridagi idealistik ta'limotlarga, jumlanan, Dekart metafizikasiga qarshi kurashga o'tlanadi. Masalan, Gobbs shunday deb yozadi: «Men fikr-mulohaza yuritar ekanman, demak, men tirikman» [7, 54] degan xulosa bilan kelishish qiyin yoki men qandaydir tushunuvchiman, demak men aqlman degan xulosa bilan ham xuddi shundaydir. Aynan shu usul bilan, men qandaydir sayr qiluvchiman, demak, men sayyorman, deyishim mumkin. Dekart o'zining bu usuli bilan tushuniladigan narsani tushunish qobiliyati bo'lgan aql bilan bir xil qilib qo'yadi.

Demak, XVII asrda sanoat ehtiyoji bilan ilm-fan, tabiatshunoslikning turli tarmoqlari rivojlana bordi. Shuning uchun ham bu davr ijtimoiy hayotning hamma sohalarida Yangi davr deb ataladi. Mana shunday mavjud sharoitlarga mos ravishda falsafiy fikrlar taraqqiyoti yuz beradi. Bu davr falsafasida jamiyat va tabiat masalalariga qiziqish kuchayib, insoniyat jamiyatining, davlatning kelib chiqish sabablari haqidagi ta'limotlar vujudga keladi. Demak, davlat jamiyat a'zolarini bir maqsadga yo'naltiruvchi, ular o'rtasida tinchlikni saqlab turuvchi, umumiy manfaatni ta'minlovchi zo'rlik vositasi – diktaturadir.

T.Gobbsning xizmati shunda bo'ladiki, unga qadar davlat ollohning yer-k-xohishi deb tushuntirilgan va ilohiylashtirilgan edi. Gobbs esa, bunday qarashga barham beradi va davlat inson manfaatlari va ehtiyojlari bilan bog'liqligini

ko'rsatib berdi. Chunki davlatning odamlar o'rtasidagi "ijtimoiy kelishuv" natijasida vujudga kelganligi haqidagi Tomas Gobbsning ta'limoti va uning o'sha davrdagi boshqa faylasuflar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida G'arbiy Yevropada falsafani ilmiy dunyoqarash darajasiga o'tish davri boshlandi.

Gobbsning ta'limoticha, fikr yurituvchi narsa ruhga, aqlga nisbatan subyekt bo'lsa ham, qandaydir moddiy narsani tashkil qiladi. Bekondan farq qilib, Gobbs mexanist-faylasuf edi. U Bekon ta'limotidagi ko'p sifatlilik va ko'p ranglilik dunyo haqidagi tasavvurni inkor qiladi va hamma narsani mexanika va matematikaga bog'lab tushuntiradi. Bunday holat Gobbs falsafasini o'ziga xos asketizmga aylantiradi. Hatto Gobbsning o'zi ham tan oladiki, uning falsafasi quruq va asketikdir. Uning fikricha, «haqiqiy falsafa yoki aniq falsafa faqat oq va qizil ranglarni emas, balki umuman har qanday bo'yoqni inkor qiladi. Har qanday fanning birinchi asoslari haqiqatdan ham o'zidan ziyo taratishi bilan inson ko'zini qamashtirmaydi, balki ko'pincha ular quruq va obrazsiz bo'ladi»[7, 143]. Gobbs izchil va isbot-dalil keltiruvchi mantiqiy fikrlashning eng yorqin timsoli deb Evklid geometriyasini tushunadi. Tabiatshunoslikning ideali deb, Galileyning mexanikasini tan oladi. Gobbs hodisalarni miqdoriy, mexanik talqin qilish yo'lidan boradi. Shu bilan u tabiiy-ilmiy metodning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi va falsafadan ma'nosiz mistik «mohiyatlar»ni siqib chiqarib tashlashga harakat qiladi.

XVII asrning boshqa faylasuflari kabi Gobbs falsafa amaliy ehtiyojlarga, hayot farovonligi darajasining oshishiga xizmat qilishi kerak, deb hisoblaydi. Lekin bu tasavvur Gobbsda sodda holda namoyon bo'ladi. «Lekin hammasi ravshanki, - deydi Gobbs, - biz falsafaning, ayiiqsa, tabiat falsafasi va geometriyaning foydasi naqadar salohiyatli ekanligini, uning insoniyat farovonligiga qanday ta'sir qilishini tasavvur qilsak va undan foydalanayotgan xalqlar hayotining obrazini, undan mahrum bo'lgan xalqlar hayot obrazi bilan solishtirsakkina yaxshi tushunamiz. Axir birinchisi ikkichisiga nisbatan qobiliyatliroqmi? Axir har bir odam ham bir xil ma'naviy tabiatga va bir xil ma'naviy qobiliyatga ega emasmi? Bir guruh xalqlar boshqa guruh xalqlar ega bo'lmagan qaysi narsaga ega bo'lishi mumkin? Axir faqat falsafaga-ku! Shunday

qilib, falsafa ushbu hamma foydalarniig sababchisidir» [7, 58]. Falsafa Gobbs ta'limoticha, jismlar (tanalar) haqidagi fandır.

Falsafani Gobbs ikki turga ajratadi. «Tabiiy» falsafa va «fuqaro» falsafasi. Tabiiy falsafa tabiiy jismlar, fuqaro falsafasi esa sun'iy jismlar yoki inson jamiyati bilan shug'ullanadi. Inson o'z tabiati jihatidan ikki turlidir. U shunday tabiiy jismki, u sun'iy jismni Yaratadi, ya'ni jamiyatni yuzaga keltiradi va o'zi ham unda ishtirok etadi. Gobbs falsafasining eng ahamiyatli va ajralmas qismlaridan biri - uning determinizmidir. «Falsafa voqea va hodisalarni bizga ma'lum bo'lgan sabablar yoki ularni keltirib chiqaruvchi asoslar orqali ratsional bilishdir. Yoki aksincha, bizga ma'lum bo'lgan narsalardan ularni keltirib chikdruvchi asoslarni ratsional bilishdir» [7, 639].

Gobbs obyektiv dunyoni ayrim moddiy jismlarning yig'indisi deb bilgan. Ularning zaruriy xususiyatlari esa geometrik belgilarda ifodalangan ko'lam va figuradir. Gobbsning fikricha, jismlarning yumshoq va qattqlik kabi xususiyati ham sof miqdoriy belgilar bilan belgilanadi, Gobbsiig fikricha, substansiyaniig belgisi shuki, u ma'lum ko'lam va figuraga ega. Gobbs ta'kidlaydiki, hamma (fanlarning predmeti ham harakatdir. Harakat materiyaning ichki mohiyatiga xos narsa emas. Harakat va sukunat bir xildir. Harakat deganda, Gobbs jismlarning makonda o'rin almashinishi tushunadi. Materiya abadiydir. Masalan, Gobbs shunday deb yozadi: «Uzil-kesil hal qilinganki, materiyani Yaratish ham, yo'q qilish ham mumkin emas, ko'paytirish ham, bizning xohishimiz bilan uni joyidan qo'zg'atish ham mumkin emas!»! [7, 50] Makon deganda ikki xil makon tushuniladi. Ya'ni jismlarning obyektiv ko'lami bo'lgan makon va makonning «subektiv obrazi» [7, 110]. Shu bilan birga obyektiv ko'lam subyektiv obrazning sababidir, deydi Gobbs. Zamon deganda ham ikki xil zamonni, ya'ni harakatni aks ettiruvchi obektiv zamonni va unga bog'liq bo'lgan «zamon obrazi»ni nazarda tutadi, olim. Gobbs ta'limoticha, odam moddiy narsadir, mustaqil ruhiy substansiya mavjud emas, chunki u ko'lamga ham, figuraga ham ega emas. Jon masalasida Gobbs fikrlovchi substansiyaning moddiyligi haqidagi faraz haqiqatga

yaqin keladi, deydi. Ruhii narsani u qandaydir nozik jisimiy harakat deb tushungan.

Gobbs mexanik bo'lganligi uchun organik dunyoning spetsifik xususiyatlarini tushunib etmadi. Masalan, odam tanasining a'zolari haqida gapirib, shunday deb yozadi: «YUrak prujinadan boshqa nima narsa bo'lishi mumkin? Nyervlar nima? Axir ular tomirlarga o'xshash iplar emasmi? Butun tanani harakatga keltiruvchi g'ildiraklar emasmi» [7, 71].

Harakat tushunchasi Gobbs uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Harakat boshqa hamma narsalarning izohi sifatida qatnashadi va miqdoriy tushuniladi, Harakatlanuvchi narsalar bu o'zaro to'qnashuvlar natijasida o'zining makondagi o'rnini o'zgartiruvchi moddiy zarralardir. Bu tushunish imkoniyatlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi hamda harakatlantiruvchi va yakuniy sabablar nuqtai nazaridan qaraluvchi o'zgarishni asosiy deb hisoblagan Aristotelning qarashiga mutlaqo ziddir. Gobbs hamma o'zgarishlarni jismoniy harakat bilan tushuntiradi va faqat bitta harakatlantiruvchi sababni joriy qiladi.

Aytish mumkinki, Aristotel jismoniy harakatni o'zgarishning sifat konsepsiyasi yordamida tushuntirishga urinadi, Gobbs esa sifat o'zgarishlarini miqdoriy harakat konsepsiyasi yordamida tushuntirishga intiladi. Olmaning ko'kdan qizilga aylanishini Aristotel olmaning pishish jarayonida uning qizil bo'lish imkoniyati aktuallashuvchi o'zgarish sifatida tushuntiradi. Ko'k olma qizil olmaning moddiy "sababi" hisoblanadi. Olmaning pishishi harakatlantiruvchi sababdan tashqari maqsad (maqsadli sabab)ni hamda shaklning o'zgarishi (shakliy "sabab")ni nazarda tutadi. Gobbs bo'yicha bunday pishishni moddiy zarralarning harakatlanishi sifatida tushuntirish mumkin.

Shunday qilib, agar hamma narsa zarralarning harakat qonunlari yordamida tushuntiriladigan bo'lsa, unda teleologik tushuntirishlar uchun joy qolmaydi. Hamma ro'y beruvchi hodisalar to'liq yumaloq bo'lib, ishqalanishsiz harakatlantiruvchi sharlarning to'qnashuvi ko'rinishida ideal amalga oshuvchi bitta mexanik determinatsiyaning o'zi yordamida tushuntirilishi kerak. Hamma

hodisalar zarurat tufayli ro'y beradi. Hatto insonning harakatlari ham determinlashgan hisoblanadi.

Bilish nazariyasida Gobbs Bekon empirizmini davom ettiradi va rivojlantiradi. Ratsionalizmning ba'zi elementlari bilan bilishni boyitadi. Gobbsning ta'limoticha, bilishning boshlang'ichi hissiy tajriba, sezgilardir. Ularning birinchi manbai esa moddiy dunyodadir. «Axir biron-bir narsaning tamoyillarini faqat hodisalar tufayli bilsak, oqibat natijada bu tamoyillarni bilish asosi sezgidir, undan esa biz har qanday bilishga ega bo'lamiz»[7, 72], — deb ta'kidlaydi Gobbs.

Gobbs ta'limoticha, empirik bilish aql nuqtai-nazaridan qayta ishlanishi kerak. Ratsional uslubning mohiyatini Gobbs hisoblab chiqarish deb biladi. Matematika sonlarni hisoblab chiqarish bilan mashg'ul, geometriya chiziqlarni, burchaklarni joylashtirish va hisoblab chiqarish bilan shug'ullanadi. Miqdoriy-matematik boshqarish bu yyerda birinchi o'ringa chiqadi. Mantiq ham bundan mustasno emas. U ham matematikaga kelib taqaladi. Masalan, hukm tushunchalarni yoki, boshqacha aytganda, belgilarni joylashtirishdir. Xulosa esa, u yoki bu hukmlarni qisman joylashtirish, qismai hisoblab chiqarishdir. Shunday qilib, Gobbs ta'limotida hisoblab chiqarish ratsional bilishning asosiy maqsadi deb hisoblanadi. Bekon juda yuqori baho bergan empirik induksiya hamma fanlarda qo'llanila bermaydi. U, ya'ni empirik induksiya fizikaga nisbagan qo'llanilishi mumkin. Lekin geometriya va sotsiologiyada uning qo'llanilishi mumkin emas. Bu fanlarda aslida ratsional deduksiya hukmronidir. Shunday qilib, Gobbs bilish jarayonining bir tomonini ikkinchi tomondan, ya'ni sezishni nazariy tafakkurdan, induksiyani deduksiya deb metafizik ravishda ajratadi.

Gobbs dunyoni jismlar yig'indisidan iborat deydi. Jisimsiz biror-bir narsa mavjud bo'lmaydi. Jisimsiz substansiya bamisoli jonsiz jismdir. Tafakkurni materiyadan ajratish mumkin emas. Bilishda u Dekart ratsionalizmiga qarama-qarshi o'laroq, sezgilar ahamiyatiga ortiqcha baho beradi. Tashqi olamni hissiy qabullash (sezgi) bilish manbai deb hisoblaydi. Sezgi yordamida hosil qilingan «g'oya» (narsa) aql orqali qayta «ishlov»dan o'tadi, deydi.

Gobbsning fikricha, olam – mexanik harakat qonunlariga bo‘ysundirilgan jismlar majmuidir. Gobbs hayvonlar va insonlarning ruhiy hayotini ham harakat va kuch-g‘ayratdan iborat qilib qo‘yadi. Ular murakkab mexanizmlar bo‘lib, tamomila tashqaridan bo‘ladigan ta’sirlar bilan belgilanadi. Bundan Gobbs quyidagicha xulosa chiqaradi: birinchidan, alohida substansiyalar sifatida jonlarning mavjudligini yagona substansiya sifatida inkor etish, ikkinchidan, moddiy jismlarni yagona substansiya sifatida e’tirof etish, uchinchidan xudoga ishonish faqat hayolning mahsuli ekanligini tasdiqlash.

Gobbs tabiatning sifat jihatdan xilma-xilligining obyektiv xarakterini inkor etib, bu xarakterni inson idroklarining xossasi deb hisoblaydi. Bu idroklar zamirida narsalarning mexanik tafovutlari asos bo‘lib yotadi, deb o‘ylardi.

Bilim to‘g‘risidagi ta’limotida u Dekartning tug‘ma g‘oyalari nazariyasini tanqid qildi. Gobbs barcha g‘oyalarni sezgilardan keltirib chiqarib, g‘oyalarni taqqoslash, birga qo‘shish va taqsimlash yo‘li bilan qayta ishlash haqidagi ta’limotni rivojlantirdi. U, tajriba yoki ayrim faktlarni bilish narsalarning aloqalari haqida faqat ehtimoliy haqiqatlarni ko‘rsatib beradi, degan fikrni aytib, har xolda tilning, ya’ni nomlar qobiliyatining taqozosi bilan yuzaga keladigan ishonchli umumiy bilim umumiy g‘oyalarning belgilari bo‘lib qolishi mumkinligini e’tirof etadi.

Tomas Gobbs falsafasining eng qimmatli tomonlaridan biri uning ijtimoiy hayot masalalari haqidagi ta’limotidir. Uning «Fuqaro haqida» va «Leviafan» asarlari davlat va ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan. Gobbs ijtimoiy hodisalarni o‘z zamonasining mexanik tabiatshunosligi nuqtai-nazaridan hal qilishga intilgan. Uning fikricha, jamiyat gigant bir mexanizmga o‘xshaydi. Inson esa bu mexanizmning kichik bir qismidir. U o‘z-o‘zini saqlash hissi bilan harakatga keluvchi egoistdir. Gobbs o‘z oldiga shunga o‘xshash «aksioma»lardan butun ijtimoiy fanning mazmunini keltirib chiqarishni maqsad qilib qo‘yadi.

Gobbsning ijtimoiy qarashlaridagi muhim jihatlardan biri shuki, u davlatning kelib chiqishi va mohiyatini ilohiylashtirishdan voz kechadi. Uningcha davlat ilohiy emas, balki sof tabiiy jarayondir.

Davlat odamlar tomonidan Yaratilgan, deydi. Gobbsniig ta'limoticha, insonlarning dastlabki tabiiy holatida, ya'ni fuqarolikkacha bo'lgan xolatida cheksiz egoizm va dushmanlik, yovuzlik hukm suradi. "Inson insonga nisbatan bo'ri" [7, 192]. Bir guruh odamlarning egoistik ruhdagi intilishlari boshqa guruh odamlarning intilishlariga qarshi keladi. Natijada «hammaning hammaga qarshi urushi» kelib chiqadi. Har bir odam o'ziga yo'l ochish uchun boshqa odamni yo'q qilishga intiladi. Gobbs o'zining xuddi ana shu fikrlari bilan ma'lum darajada Yangi jamiyatga xos bo'lgan xususiyatlarni, ya'ni raqobatni, anarxiyani, urushlarni, kishini kishi tomonidan ezishni aks ettiradi. Gobbs bularni jamiyatning «tabiiy holati» deb biladi [7, 88].

Gobbs hamma odamlar o'z tabiati jihatidan bir-biriga tengdirlar[7, 91], deydi. Lekin u o'zining bu ilg'or fikridan noto'g'ri xulosa chiqarib, go'yoki odamlarning tengligi uzluksiz zidliyatlar va o'zaro to'qnashuvlarga olib keladi [7, 92], deydi. Gobbsning fikricha, tabiiy holatdan ijtimoiy holatga, ya'ni davlatga o'tish o'zaro kelishuv, «shartnoma» asosida yuz beradi [7, 127]. U davlatni Bibliyadagi afsonaviy hayvon Leviafanga o'xshatadi. Fuqarolar qodir davlatning qullaridir, o'ziga xos organizmning, sun'iy, murakkab tananing qulidir [7, 200]. Olam bu organizmning bir bo'lakchasi bo'lgani uchun davlatga va uning hukmdorlariga qarshi chiqishga qodir emas.

Gobbs xalq suvereniteti g'oyasiga qarshi kurashadi. Boshqarishning eng yaxshi usuli deb u monarxiyani tan oladi. Gobbsning falsafiy ta'limotida o'sha zamon mexanistik falsafasining taraqqiyparvar g'oyalari ustunlik qiladi. Ijtimoiy-siyosiy qarashlarida esa antidemokratik an'analar hukmronlik qiladi.

Lekin Gobbsning nuqtai-nazari royalistlar, katoliklar nuqtai-nazaridan farq qiladi. Ma'lumki, ular feodal davrga yoki yarim feodal davrga qaytish uchun inqilobga qarshi kurashganlar. Gobbs o'zining «Leviafan» asarida feodal jamiyatga qaytish maqsadi bilan emas, balki yuqori burjua qatlamlarining, burjualashgan daalatlarning manfaatli maqsadi, savdo va sanoatni rivojlantirish maqsadida inqilobga qarshi kurashni targ'ib qiladi.

Tomas Gobbs kishilar bir-birlari bilan jismoniy va aqliy jihatdan teng Yaratilgan, shuning uchun ularning har biri “hamma narsaga egalik qilish” huquqiga ega deydi. Ammo insonda ayni holda shaxsiyatparastlik, ochko‘zlik intiluvchanlik, qo‘rquv va shuhratparastlik xususiyatlari ham mavjud. U o‘ziga o‘xshagan, demak, unga raqib bo‘lgan hasadgo‘ylar, dushmanlar qurshovidadir. Shu ma’noda “kishi kishiga bo‘ri”, bundan esa jamiyatda barcha bir-biriga dushman, “barcha barchaga qarshi urush olib boradi” degan xulosa chiqadi. “Hamma narsalarga haqqi borlik” ana shunday o‘zaro urush vaziyatida amalda hech narsaga huquqi yo‘qlikka olib keladi. Ana shunday holatni T.Gobbs “insoniyatning tabiiy holati” deb ataydi.

Uning fikricha, insonda “hammani hammaga qarshi urush”ga chorlovchi kuchlardan tashqari uni o‘zining ayanchli tabiiy holatidan chiqishga chorlovchi xususiyatlar ham mavjud. Bular eng avvalo undagi boshqa barcha intilishlarni siqib qo‘yuvchi o‘limdan qo‘rqish va o‘z-o‘zini saqlash instinktidir. Shu bilan birga insonda tabiiy aql, ya’ni o‘z xatti-harakatlarining ijobiy va salbiy oqibatlari haqida sog‘lom fikr yuritish xususiyati ham mavjud.

Eng asosiy tabiiy qonun insonga tinchlikka intilish zarurligini talab qiladi. Boshqa barcha narsalardan tinchlikka yerishishning usullari sifatida foydalaniladi. Ularning ichida eng muhimi har bir kishining o‘z huquqlaridan tinchlik va o‘z-o‘zini himoya manfaatlari talab qiladigan darajada voz kyechish hisoblanadi. Huquqlardan voz kyechish ko‘pincha ularni shartnoma bo‘yicha muayyan shaxsga yoki muayyan kishilar guruhiga o‘tkazish tarzida amalga oshiriladi. Kishilar o‘zlari tuzgan bitimlarni amalga oshirishlari kerak, aks holda shartnomalar hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Ana shu uchinchi tabiiy qonunda adolatning manbayi va boshlanishi mujassamlashgan.

Gobbsning fikricha, tabiiy qonunlarni amalga oshiradigan va tinchlikning kafolati bo‘ladigan kuch – davlatning absolyut hokimiyatidir. Davlat hukmron shaxs va barcha kishilarning kuch va vositalaridan foydalandi. Ana shuning ifodalovchisi - suveren, ya’ni oliy hokimiyat egasi, hukmdordir. U oliy hokimiyatga ega, boshqa barcha uning fuqarolaridir.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Olamning mexanistik manzarasi tushunchasi.
2. Organik dunyo va jamiyat hayotini mexanika qonunlari asosida tushuntirishga intilishlar.
3. Mexanistik determinizmning paydo bo'lishi va mohiyati.

Адабиётлар:

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р., Қобулниёзова Г., Рузматова Г. Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси.. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Пўлатова Д., Рузматова Г. Фарб фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Premier-print, 2011.
3. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
4. Фалсафа. Қомусий луғат /Қ.Назаров таҳрири остида. –Тошкент: ЎФМЖ, 2005.
5. Декарт Р. Избранные произведения. –М., 1950.
6. Спиноза Б. Избранные произведения в 2-х томах. –М., 1957.
7. Гоббс Т. Избранные произведения. В 2-х томах. Т. 1. -М.,1964.